



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA  
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

**KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI  
TO'PLAMI**

**TOSHKENT - 2026-YIL**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR  
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI  
materiallar to'plami**

**Toshkent shahri-2026**

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:  
Abdurazakova K.Y.  
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:  
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

### **Annotatsiya**

*Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.*

### **Аннотация**

*Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).*

### **Annotation**

*This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.*

## KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, aziz mehmonlar, ustozlar va talabalar!

So‘z avvalida bugungi anjumanda o‘zining qimmatli vaqtini ayamasdan ishtirok etayotgan Respublikamizning ta’lim muassasalari, ilmiy jabhalarida mehnat qilib kelayotgan fidoiy va jonkuyar professor-o‘qituvchilar, ilmiy-pedagog xodimlarga alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Bugungi anjumanning “globallashuv davridagi yoshlar ma’naviyati”ga qaratilgani bejizga emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘tgan yil dekabr oyidagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida *“...yoshlarimizda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo‘yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz”* degan so‘zlarni tilga olgan edi. Darhaqiqat, hozirgi global o‘zgarishlar davrida, dunyoda o‘ta keskin va tahlikali jarayonlar yuz berayotgan bugungi kunda, barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solish, jumladan turli ilmiy anjuman va tadbirlarda muhokama qilib borish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Mazkur anjumanda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini o‘rganish, ularning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, jumladan yoshlarning ijtimoiy faolligi va g‘oyaviy immunitetini kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilinishi maqsad qilingan. Bu esa tabora kengayib borayotgan global axborot makonidagi dolzarb vazifalaridan biri – jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlar ongiga sog‘lom dunyoqarashni va vatanga sadoqat ruhini singdirish uchun xizmat qiladi.

Anjuman ishida ilmiy-tadqiqotlar va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, zamonaviy, innovatsion ilmiy uslublar, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ijtimoiy-gumanitar fanlar istiqbolini ilmiy jihatdan belgilab berish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Mazkur anjuman ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga to‘sqinlik qilayotgan dolzarb muammolarni aniqlash, ularning ilmiy yechimlarini taklif etish, zamonaviy ilmiy

maktablar faoliyatini takomillashtirish hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladi. Anjumanda shakllantiriladigan ilmiy takliflar jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tadqiqotlarning yangi metodologik yondashuvlar asosida olib borilishi, ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, anjuman ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy faoliyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga, ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlikning kuchayishiga hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Bugungi konferensiyada yoshlar qanotiga ham alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni konferensiyada magistrlar va talabalar uchun alohida "Kelajak vorislari" sho'basi ham ish olib boradi. Bu esa ilm-fanga yangi qadam tashlayotgan yoshlarning nufuzli anjumanda ishtirok etishi va ko'nikma hosil qilishi uchun minbarlar vazifasini o'tashi shubhasiz.

Umuman olganda, bugungi konferensiya ustozlar oldiga qo'yilgan yuksak vazifa – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdek dolzarb masalaning yechimini topishda muhim qadam bo'ladi deb o'ylayman.

***Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich,***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik*

## TABRIK SO'ZI

Assalomu alaykum, muhtaram anjuman ishtirokchilari, aziz professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar! Sizlarni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mezbonligida o'tkazilayotgan "Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining ochilishi bilan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish — uchinchi Renessans poydevorini qo'yishning eng muhim shartidir. Ushbu anjuman aynan yoshlarimizning ma'naviy olamini asrash va ularda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Konferensiya doirasida muhokama qilinadigan to'rtta asosiy yo'nalish jamiyatimiz hayotidagi eng hayotiy masalalarni qamrab olgan: Globallashuv va yoshlar masalasiga falsafiy talqin berish orqali zamonaviy tahdidlarga ilmiy nuqtayi nazardan yechim izlanishi; Yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishning ijtimoiy-siyosiy omillarini tahlil qilish orqali davlatimiz taraqqiyotiga daxldorlik hissini kuchaytirish; Mustaqillik davrida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini sarhisob qilib, kelajak rejalarini belgilab olish; Yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini ishlab chiqish orqali ham ma'nan, ham jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Quvonarlisi shundaki, konferensiya materiallari orasidan nafaqat tajribali olimlarning, balki "Kelajak vorislari" sho'basida faol ishtirok etayotgan iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy qarashlari joy olgan. Bu esa ilm-fanda ustoz-shogird an'analari davom etayotganidan dalolat beradi.

Ishonchim komilki, bugungi anjuman doirasidagi qizg'in bahs-munozaralar va takliflar yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarimizni e'zozlashda yangi ufqlarni ochib beradi.

Barchangizga ilmiy ijod yo'lida ulkan zafarlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman!

E'tiboringiz uchun rahmat.

***Jamolidinova Odina Rasulovna,***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xotin  
qizlar Maslahat kengashi pedagogika fanlari  
doktori, professor raisi.*

holatida tiklashning iloji yo'qligi sababli, asl ko'rinishidagi birga-bir maket holatida tiklanganligi ularning universal mislsiz qiymatini ancha paytirgan. Shunday bo'lsada, ularning qayta tiklanishi bu yodgorliklarning insoniyat tomonidan yaratilgan ajoyib san'at yoki me'moriy yechimlarni tasavvur qilishimiz uchun yetarli bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Рядова М.Н., Козырева Е.А., Шуваева Е.Ю. История охраны и реставрации объектов культурного наследия. Санкт-Петербург, 2024, -стр. 66.
2. Кальницкая Е. Я. Живем и помним. Послевоенная реставрация: век нынешний и век минувший : сб. ст. по мат-лам науч.-практ. конф. ГМЗ «Петергоф». СПб.: Европейский Дом, 2010. С. 8.
3. Бараньский М. Послевоенное восстановление архитектурных памятников в оценке зарубежных экспертов. Послевоенное восстановление памятников. Теория и практика XX века : материалы международной научной конференции, 4–5 декабря 2014. -стр.3.
4. <https://whc.unesco.org/en/list/1156>.
5. Бахарева Ю.Ю. Подготовка и начало работ по восстановлению памятников Ленинграда в годы Великой Отечественной войны и блокады города (1941–1945 гг.). Послевоенное восстановление памятников. Теория и практика XX века: материалы международной научной конференции, 4–5 декабря 2014. -стр.6.
6. Белявская О.Ю. Послевоенное возрождение ансамбля Круглой площади в Полтаве. Послевоенное восстановление памятников. Теория и практика XX века: материалы международной научной конференции, 4–5 декабря 2014. -стр.31.
7. Вайнгорт А-Л. Записки провинциального архитектора. Полтава: Астрей-информ, 2001. -с. 73.
8. Легостаева О. Война после войны: уничтожение сербского культурного наследия в Косово и Метохии. II конференция ЮНЕСКО в рамках Орловской модели ООН «Война и мир: проблемы сохранения культурного наследия». Материалы конференции. Орел, 2016, -стр. 38.

## **MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI**

**Abdusalomova Sevara Raxmonqulovna,**

*"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Email: [Boryav387@gmail.com](mailto:Boryav387@gmail.com)

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/MLPZ5634

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi transport infratuzilmasining 1991-yildan 2022-yilgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari, uning globallashtiruv jarayonlaridagi o'rni va yoshlar madaniyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqa davlatlarining postsovet davridan keyingi transport-logistika strategiyalari, xususan, temir yo'l va aviatsiya sohalaridagi modernizatsiya jarayonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy bog'liqlik tashabbuslari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy transport koridorlarining shakllanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki yosh avlodning mobilligini oshirish, ularning global mehnat bozori va madaniy makonga integratsiyalashuviga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Markaziy Osiyo, transport infratuzilmasi, globallashtiruv, yoshlar madaniyati, temir yo'l, aviatsiya, mintaqaviy integratsiya, logistika, Shavkat Mirziyoyev, strategik koridorlar.*

## **TRANSPORT INTEGRATION IN CENTRAL ASIA: GLOBALIZATION TRENDS AND CULTURAL TRANSFORMATION OF THE YOUNGER GENERATION**

**Sevara Rakhmonkulovna Abdusalomova,**  
*History Teacher, Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi  
Email: Boryav387@gmail.com*

**Abstract:** This article analyzes the development stages of transport infrastructure in the Central Asian region from 1991 to 2022, its role in globalization processes, and its impact on youth culture. The research examines the transport and logistics strategies of the regional states in the post-Soviet era, particularly the modernization processes in the railway and aviation sectors, as well as the regional connectivity initiatives put forward by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev. The article scientifically demonstrates that the formation of modern transport corridors contributes not only to economic growth but also to increasing the mobility of the younger generation and facilitating their integration into the global labor market and cultural space.

**Keywords:** *Central Asia, transport infrastructure, globalization, youth culture, railway, aviation, regional integration, logistics, Shavkat Mirziyoyev, strategic corridors.*

Globallashtiruv jarayonlari sharoitida transport infratuzilmasi nafaqat iqtisodiy aloqalarni bog'lovchi, balki madaniy integratsiyaning ham asosiy drayveriga (harakatlantiruvchi kuchiga) aylandi. Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geografik yopiqligini zamonaviy temir yo'l va aviatsiya tarmoqlari orqali yengib o'tar ekan, bu

transformatsiya mintaqa aholisining, ayniqsa, demografik ko'pchilikni tashkil etuvchi yoshlarning dunyoqarashi va madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

1991-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda transport tizimining rivojlanishi mintaqaning strategik ahamiyatini hamda postsovet davridan keyingi infratuzilmani modernizatsiya qilish borasidagi qat'iy sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mintaqa davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – sobiq ittifoq iqtisodiyotiga xizmat qilishga moslashgan transport tizimini tubdan isloh qilish va milliy manfaatlar asosida qayta tiklash kabi jiddiy muammolarga duch keldilar.

1991-2022-yillar oralig'ida Markaziy Osiyo transport tizimining evolyutsiyasi mintaqaning strategik mavqeyini mustahkamlash hamda postsovet davri infratuzilmasini modernizatsiya qilish yo'lidagi tizimli islohotlarni ifodalaydi. Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mintaqa davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – sobiq ittifoq iqtisodiy markazlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan, milliy manfaatlar va yangi geosiyosiy voqelikka javob bermaydigan eskirgan transport kommunikatsiyalarini tubdan qayta qurish muammosiga duch keldilar.

Ushbu davrda temir yo'l va aviatsiya sohalarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ehtiyojlar, balki tarixiy merosni qayta anglash va mintaqaviy xavfsizlik mulohazalari bilan uzviy bog'liq holda kechdi. Sobiq tuzumdan meros qolgan tarqoq infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalashish Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashning asosiy omiliga aylandi.

Markaziy Osiyodagi temir yo'l tarmoqlari 1990-yillarning boshlariga kelib, texnik jihatdan eskirgan va yomon holatda edi. Meros qolgan tizim milliy chegaralar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni emas, balki asosan xomashyoni sanoat markazlariga tashishni ko'zda tutgan edi. Bu esa globallashtirish davrida mintaqaning dunyo bilan integratsiyalashuviga to'sqinlik qilardi.

Mintaqada temir yo'l rivojlanishida Qozog'iston birinchilardan bo'lib strategik islohotlarni boshladi. Hukumat transport tizimini Yevropa va Osiyo o'rtasidagi asosiy yo'lak sifatida modernizatsiya qildi. Ayniqsa, Xitoy bilan bog'lanish imkonini beruvchi

“Xorg’os darvozasi” kabi yirik loyihalar mintaqaning tranzit salohiyatini tubdan o’zgartirdi. 2022-yilga kelib, ushbu infratuzilma “Bir makon, bir yo’l” tashabbusining ajralmas qismiga aylanib, nafaqat yuk tashishni, balki hududlararo madaniy va iqtisodiy almashinuvni ham tezlashtirdi.

O’zbekiston ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, temir yo’l tizimiga ulkan sarmoyalar kiritdi. “O’zbekiston temir yo’llari” AJ tomonidan asosiy yo’nalishlarni elektrlashtirish va harakat tarkibini zamonaviylashtirishga ustuvor ahamiyat berildi. Toshkent-Samarqand yo’nalishida tezyurar poyezdlarning joriy etilishi yo’lovchilar, ayniqsa, zamonaviy mobillikka intiluvchi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Bu loyihalar qatnov vaqtini qisqartirish bilan birga, yirik shaharlar o’rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarni ham yangi bosqichga ko’tardi. Hukumatning qo’shni davlatlar bilan hamkorlikdagi loyihalari mintaqaviy savdo va yoshlar o’rtasidagi muloqot uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Qirg’iziston, Tojikiston va Turkmanistonning transport strategiyalari ham mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va tashqi dunyo bilan madaniy-iqtisodiy muloqotni kengaytirishga qaratildi. Qirg’iziston transchegaraviy aloqalarni yaxshilash va logistika markazlarini modernizatsiya qilish orqali savdoni osonlashtirishga intilgan bo’lsa, Tojikiston va Turkmaniston geografik qiyinchiliklarga qaramay, O’zbekiston, Eron va Afg’oniston bilan bog’lovchi yangi yo’laklarni (masalan, Turkmaniston-Afg’oniston-Tojikiston temir yo’li) barpo etishga e’tibor qaratdi.

Ushbu transchegaraviy loyihalar globallashuv sharoitida mintaqaviy to’siqlarni bartaraf etishda muhim rol o’ynadi. Infratuzilmaning bunday kengayishi nafaqat yuk tashish hajmini oshirdi, balki turli mamlakat yoshlari o’rtasida o’zaro bordi-keldi va ijtimoiy-madaniy almashinuvning jadallashishiga, ularning yagona iqtisodiy makonda faol harakatlanishiga zamin yaratdi.

Markaziy Osiyoda aviatsiya sektori 1991-yildan buyon texnik modernizatsiyadan o’tib, mintaqaning global dunyo bilan integratsiyalashuvida asosiy ko’priikka aylandi. Dastlabki yillardagi eskirgan aviaparklar o’rnini zamonaviy havo kemalari egallashi bilan mintaqa davlatlari xalqaro turizm va biznes markazlariga aylana boshladi.

Qozog'istonning "Air Astana" va "Uzbekistan Airways" aviakompaniyalari ushbu islohotlarning yetakchisi sifatida Markaziy Osiyoni dunyoning yirik megapolislari bilan bog'ladi. Toshkent va Ashxobodda qurilgan yangi xalqaro aeroportlar nafaqat yo'lovchi tashish, balki mintaqaning tranzit jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston ham o'z navbatida, mintaqaviy aloqalar va xalqaro xavfsizlik standartlarini yaxshilash orqali tashqi dunyo bilan muloqotni kengaytirishga intilmoqda.

Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasini rivojlantirishda mintaqaviy hamkorlik va geosiyosiy omillar hal qiluvchi rol o'ynadi. CAREC (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi) dasturi va Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi kabi global loyihalar mintaqani yirik tranzit xabiga aylantirdi. Bu jarayon nafaqat temir yo'l va havo aloqalarini mustahkamladi, balki Markaziy Osiyoning jahon bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirdi.

2022-yil holatiga ko'ra, transport tizimlarining evolyutsiyasi mintaqaning Yevropa va Osiyo o'rtasidagi "strategik ko'priq" sifatidagi maqomini tasdiqladi. Mavjud moliyaviy va geosiyosiy qiyinchiliklarga qaramay, infratuzilmaga kiritilgan sarmoyalar yanada ochiq va farovon mintaqani yaratishga xizmat qilmoqda.

Globallashuvning ushbu bosqichi yoshlar madaniyati uchun yangi ulanish (connectivity) davrini boshlab berdi. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi yosh avlod uchun dunyo bozorlari, global ta'lim resurslari va zamonaviy texnologiyalarga chiqish imkonini kengaytirdi. Bu esa ularning nafaqat iqtisodiy faolligini, balki dunyo hamjamiyatining bir qismi sifatida global madaniy makonda o'z o'rnini topishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi tarixiy nutqi Markaziy Osiyo taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Davlat rahbari o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek, *"Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishidir"*. Ushbu strategik yondashuv doirasida mintaqani barqaror va iqtisodiy rivojlangan hududga aylantirishning asosiy omili sifatida transport-logistika salohiyatini yuksaltirish belgilab olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro minbarlarda turib, transport koridorlarini diversifikatsiya qilish masalasiga nafaqat iqtisodiy, balki globallashtirish sharoitida mintaqaviy yaxlitlikni saqlash vositasi sifatida qaraydi. Shu maqsadda, 2017-2018 yillarda qabul qilingan tarixiy qarorlar va "2018-2022-yillarga mo'ljallangan transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish kompleks dasturi" amaliyotga tatbiq etildi.

Davlat rahbarining ta'rifiga ko'ra, zamonaviy transport kommunikatsiyalari – bu mintaqa davlatlari o'rtasidagi *"hayotiy tomirlar"*dir. Bu infratuzilma faqatgina tovar ayirboshlashni oshirib qolmay, balki yoshlar madaniyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yangi transport yo'laklari Markaziy Osiyo yoshlari uchun o'zaro bordi-keldi va madaniy integratsiya maydonini kengaytiradi.

Prezident ta'kidlaganidek, *"Mintaqaviy bog'liqlik – bu kelajak avlodlar uchun ochiq eshiklar va cheksiz imkoniyatlar demakdir"*.

Shu tariqa, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan transport strategiyasi globallashtirishning salbiy oqibatlarini yumshatib, mintaqa yoshlarining zamonaviy texnologiyalar va global iqtisodiy makonga uyg'unlashuviga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning transport siyosati tashqi savdo yo'laklarini diversifikatsiya qilish va mahalliy logistika kompaniyalarining global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar bilan xarakterlanadi. 2017-2022-yillarga mo'ljallangan kompleks dasturlar doirasida tranzit salohiyatini yuksaltirish va xalqaro shartnomaviy-huquqiy bazani mustahkamlash bo'yicha muhim qadamlar tashlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoni yirik dengiz portlari va jahon bozorlari bilan bog'laydigan transport-kommunikatsiya loyihalari ustuvor vazifa etib belgilandi. Ushbu strategik maqsadlar 2018-yilda Toshkentda o'tkazilgan yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada dunyoning 37 davlati va 25 ta xalqaro tashkiloti tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Shu bilan birga, SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti) doirasida transport sohasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, xususan, temir yo'l ma'muriyatlarining o'zaro hamkorligi konsepsiyasining tasdiqlanishi mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishning yangi xaxiralari va samarali mexanizmlarini izlashni taklif etib, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya sohalarida aniq sheriklik dasturlarini ishlab chiqish muhimligini qayd etadi. Bu borada Markaziy Osiyoni yirik dengiz portlari va jahon bozorlari bilan bog'laydigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan global tashabbuslar mamlakatning Taraqqiyot strategiyasida o'zining amaliy ifodasini topdi. Xususan, strategiyaning 36-maqsadi doirasida transportning barcha turlarini qamrab oluvchi yagona tizimni yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu jarayonda temir yo'llarni elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va yirik shaharlar o'rtasida kundalik qatnovlarni yo'lga qo'yish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki aholining, ayniqsa, zamonaviy hayot sur'atida yashovchi yoshlarning mobilligini ta'minlaydi.

2022-yilgi Samarqand sammitida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ilgari surilgan Transkaspiy xalqaro yo'lagi loyihasi O'zbekistonning globallashuv jarayonlaridagi faol ishtirokini ko'rsatadi. Prezident ta'kidlaganidek, biznes uchun qulay tariflar va zamonaviy infratuzilmani yaratish tashqi savdo yuklarini xavfsiz va tezkor tashishning kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasining rivojlanishi shunchaki iqtisodiy loyiha emas, balki mintaqaning global dunyoga integratsiyalashuvini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy hodisadir. Transport tizimidagi qulayliklar va tezkorlik yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni zamonaviy dunyo talablariga mos, mobillikka ega va o'z madaniy o'zligini anglagan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. 2022-yilga kelib shakllangan transport tarmog'i kelajakda mintaqa yoshlarining intellektual va madaniy salohiyatini ro'yobga chiqarishda asosiy poydevor bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi “Tashqi savdo yuk tashishning tashqi transport yo'laklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3422-sonli qarori.
5. Алимов Ш. Развитие железнодорожного транспорта в Центральной Азии (1991-2022 гг.): Автореф. дисс. ... канд. техн. наук. – Ташкент, 2018. – 150 с.
6. Афзалова И. Воздушный транспорт в Центральной Азии: состояние и перспективы (1991-2022 гг.): Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 2022. – 170 с.
7. Курбонов С. Проблемы развития железнодорожного транспорта в Таджикистане (1991-2022 гг.): Автореф. дисс. ... канд. техн. наук. – Душанбе, 2020. – 180 с.
8. Сидоров А. Авиаперевозки в Центральной Азии: проблемы и пути решения (1991-2022 гг.): Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 2020. – 180 с.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI

**Abdusalomova Sevara Raxmonqulovna,**

*"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Email: [Boryav387@gmail.com](mailto:Boryav387@gmail.com)*

**Doi:** 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/ACQI3587

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Fuqaro aviatsiyasi globallashuv jarayonining muhim vositasi sifatida mamlakatni dunyo bilan bog'lab, yoshlarning turli madaniyatlar bilan tanishishiga, turizm va ta'lim almashinuviga keng imkoniyat yaratgan. Aviatsiya infratuzilmasining rivoji globallashuvni tezlashtirib, yoshlar madaniyatida yangi tendensiyalar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, fuqaro aviatsiyasi, globallashuv, yoshlar madaniyati, tarix, madaniy almashinuv.*

## MUNDARIJA.

| <b>T\ r</b>                                       | <b>Mavzusi</b>                                                                                                                                                   | <b>beti</b> |
|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN</b> |                                                                                                                                                                  |             |
| 1.                                                | <b>Sirojiddinov Sh.S.</b> KIRISH SO'ZI.                                                                                                                          | 4           |
| 2.                                                | <b>Jamolidinova O.R.</b> TABRIK SO'ZI.                                                                                                                           | 6           |
| 3.                                                | <b>Yunusov K.A.</b> GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV                                                   | 8           |
| 4.                                                | <b>Kushayev U.R.</b> QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI                                                                         | 13          |
| 5.                                                | <b>Sultonova N.E.</b> SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.                                                                                           | 19          |
| 6.                                                | <b>Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D.</b> FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI | 23          |
| 7.                                                | <b>Islamova D.X., Abdusattorov A.B.</b> YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI                                              | 28          |
| 8.                                                | <b>Islamova D.X.</b> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI                        | 32          |
| 9.                                                | <b>G'ulamov O.G'.</b> YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI                                                                        | 37          |
| 10.                                               | <b>Ibrogimova G.</b> MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.                                                                | 42          |
| 11.                                               | <b>Ahadov SH.</b> CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN                                                                                                          | 47          |

|                                                                             |                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                             | CENTRAL ASIA.                                                                                                                                     |     |
| 12.                                                                         | <b>Jumaqulova N., Arolova Z.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI                          | 56  |
| 13.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI                                                                       | 61  |
| 14.                                                                         | <b>Ibragimov B.I.</b> TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI | 65  |
| 15.                                                                         | <b>Shirnova Y.T., Isakulova S.E.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA              | 71  |
| 16.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI                                      | 75  |
| 17.                                                                         | <b>Karimov F.</b> O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI                                          | 79  |
| <b>II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI</b> |                                                                                                                                                   |     |
| 18.                                                                         | <b>Omonov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR                                                                      | 85  |
| 19.                                                                         | <b>Kuchkarov V.</b> PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY                                          | 93  |
| 20.                                                                         | <b>Nazarov N.</b> YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI                                                       | 101 |
| 21.                                                                         | <b>Abdurazakova K.</b> IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.                                                     | 107 |
| 22.                                                                         | <b>Nazarova D., Boymirzayev O.O.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN                                            | 113 |

|     |                                                                                                                              |     |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|     | HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI                                                                                                   |     |
| 23. | <b>Kudratova U.</b> TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI                                                                   | 119 |
| 24. | <b>Jiyanmuratova G.</b> YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR                               | 123 |
| 25. | <b>Ma'mirova O.</b> DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI   | 128 |
| 26. | <b>Salayev F.</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI | 135 |
| 27. | <b>Ibragmov J.</b> MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR                                                                        | 138 |
| 28. | <b>Ergashev K., Shaymardonova G.</b> KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT                                                    | 145 |
| 29. | <b>Бозаров А.</b> НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.                                            | 151 |
| 30. | <b>Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI                                              | 159 |
| 31. | <b>Mirraximov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI                                       | 163 |
| 32. | <b>Ergashev K.E.</b> O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT                                           | 168 |
| 33. | <b>Shirzad R.</b> YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).   | 176 |
| 34. | <b>Gong Yi Feng.</b> THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS     | 189 |
| 35. | <b>SHI FENGKAI.</b> CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN                          | 197 |

|                                                                                                    |                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                                    | COOPERATION.                                                                                                                                 |     |
| 36.                                                                                                | <b>Rakhimov M.</b> YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN  | 201 |
| <b>III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI</b> |                                                                                                                                              |     |
| 37.                                                                                                | <b>Qahramon R.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI                                                    | 207 |
| 38.                                                                                                | <b>Isakov B.N.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. | 220 |
| 39.                                                                                                | <b>Jurakulov J.</b> YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.                                   | 224 |
| 40.                                                                                                | <b>Yarkulov A.</b> YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.                                                  | 232 |
| 41.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.   | 241 |
| 42.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.                      | 248 |
| 43.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F., Boboxonov Sh.</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.       | 252 |
| 44.                                                                                                | <b>Muminov B.</b> MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.                                                        | 259 |
| 45.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F.</b> O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.                                                                  | 268 |
| 46.                                                                                                | <b>Qurbonova M.</b> MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:                                                                                        | 273 |

|                                                                                  |                                                                                                                                             |     |
|----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                  | MUVOZANAT MASALASI.                                                                                                                         |     |
| 47.                                                                              | <b>Mirzoyeva F., Rashidi O.</b> BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).       | 278 |
| 48.                                                                              | <b>Abdurazakova K., Rustamova A.</b><br>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.                                      | 282 |
| 49.                                                                              | <b>Jo'raqulov J.</b> SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.                                                                         | 291 |
| 50.                                                                              | <b>Xurromova S.</b> IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.                                                      | 300 |
| 51.                                                                              | <b>Razzakova N., Axunova D.</b><br>IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI. | 304 |
| <b>IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI</b> |                                                                                                                                             |     |
| 52.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.                           | 314 |
| 53.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.                                              | 319 |
| 54.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Xolbekova Sh.</b> YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.                                                       | 324 |
| 55.                                                                              | <b>Xaitmetov F., Nuzilloeva G.</b> MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.                | 330 |
| 56.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Majidova O.</b> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.       | 336 |

|     |                                                                                                                                   |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 57. | <b>Alimboyeva R., Norkobilova SH.</b><br>JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI<br>TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI. | 342 |
| 58. | <b>Sobirova D.</b> ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA<br>INSON QADRI                                                               | 349 |
| 59. | <b>Toshburieva S.</b> METHODOLOGICAL APPROACHES IN<br>EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF YOUNG WOMEN'S<br>SPIRITUALITY              | 352 |

**To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.**

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

